O‘ZBEKISTON MEHNAT MIGRANTLARINING PUL O‘TKAZMALARI VA ULARNING MAKROIQTISODIYOTGA TA’SIRI: XALQARO VALYUTA JAMG‘ARMASI VA JAHON BANKI TAHLILLARI ASOSIDA

Xajibakiyev Shuhrat[1], Olimbayeva Feruza O‘ktamboy qizi[2]

[1]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Makroiqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi
[2]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18977409

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston mehnat migrantlari pul o‘tkazmalarining makroiqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi, buning uchun Xalqaro Valyuta Jamg`armasi (IMF) va Jahon banki ma’lumotlari va tahlillaridan foydalanilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklarining iste’molini oshiradi, ichki talabni kuchaytiradi va qisqa muddatli YaIM o‘sish sur’atlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, ular valyuta bozorida barqarorlashtiruvchi omil sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada “teskari pul o‘tkazmalari”, raqamli o‘tkazma kanallari va migrant mablag‘larining tadbirkorlik va investitsiyalarga bo‘lgan ko‘paytiruvchi ta’siri bo‘yicha yangi yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari pul o‘tkazmalarining O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissasini ko‘rsatadi hamda samarali migratsiya va moliyaviy boshqaruv bo‘yicha siyosiy tavsiyalar beradi.

KALIT SO‘ZLAR

pul o‘tkazmalari, mehnat migratsiyasi, makroiqtisodiyot, uy xo‘jaliklari iste’moli, ichki talab, qisqa muddatli YaIM o‘sishi, valyuta barqarorligi, teskari pul o‘tkazmalari, raqamli o‘tkazmalar, tadbirkorlik, investitsiyalar, moliyaviy boshqaruv.

ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ УЗБЕКСКИХ МИГРАНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА МАКРОЭКОНОМИКУ: ОЦЕНКА НА ОСНОВЕ ОТЧЕТОВ МВФ И ВСЕМИРНОГО БАНКА

Хаджибакиев Шухрат[1], Олимбаева Феруза Октамбой кизи[2]

[1]Национальный университет имени Мирзо Улугбека в Узбекистане
Старший преподаватель кафедры макроэкономики
[2]Национальный университет имени Мирзо Улугбека в Узбекистане
Студентка экономического факультета

АННОТАЦИЯ

Данное исследование анализирует влияние денежных переводов узбекских мигрантов на макроэкономику с использованием данных и анализов Международного валютного фонда (МВФ) и Всемирного банка. В работе выявляются позитивные эффекты переводов на потребление домохозяйств, внутренний спрос и краткосрочный рост ВВП, а также их роль как стабилизирующего фактора на валютном рынке. Представлены новые подходы к обратным переводам, цифровым каналам перевода и

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

денежные переводы, трудовая миграция, макроэкономика, потребление домохозяйств, внутренний спрос, краткосрочный рост ВВП, стабильность валюты,

множественному эффекту средств мигрантов на предпринимательство и инвестиции. Результаты показывают значительный вклад переводов в экономическое развитие Узбекистана и предлагают рекомендации по эффективному управлению миграцией и финансами.

обратные переводы, цифровые переводы, предпринимательство, инвестиции, финансовое управление.

REMITTANCES OF UZBEK MIGRANTS AND ITS IMPACT ON THE MACROECONOMY: AN ASSESSMENT BASED ON IMF AND WORLD BANK REPORTS

Khajibakiyev Shuhrat[1], Olimbayeva Feruza Oktamboy kizi[2]

[1]Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Senior Lecturer, Department of Macroeconomics
[2]Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan
Student, Faculty of Economics

ABSTRACT

This study analyzes the impact of remittances from Uzbek migrants on the macroeconomy, using data and analyses provided by the International Monetary Fund (IMF) and the World Bank. The research identifies the positive effects of remittances on household consumption, domestic demand, and short-term GDP growth, while also exploring their role as a stabilizing factor in the foreign exchange market. The paper presents novel insights into reverse remittances, digital transfer channels, and the multiplier effect of migrant funds on entrepreneurship and investments. The findings highlight the significant economic contribution of remittances to Uzbekistan’s economic development and provide policy recommendations for effective migration and financial management.

KEYWORDS

remittances, labor migration, macroeconomy, household consumption, domestic demand, short-term GDP growth, currency stability, reverse remittances, digital transfers, entrepreneurship, investments, financial management.

Kirish. Mehnat migratsiyasi va uning iqtisodiy oqibatlari so‘nggi yillarda global iqtisodiyotda katta e’tibor qozonmoqda. Xususan, O‘zbekiston uchun mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pul o‘tkazmalari (remittances) mamlakat iqtisodiyotining muhim daromad manbai sifatida ahamiyat kasb etadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023–2024-yillarda O‘zbekistonning rasmiy o‘tkazmalari hajmi 14–16 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu mamlakatning yalpi ichki mahsulotining (YaIM) taxminan 25–30 foizini tashkil qiladi[1].

O‘zbekiston Respublikasi “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni (2022) va “Valyuta tartibi to‘g‘risida”gi Qonuni (2021, 2023) o‘tkazmalar oqimini tartibga solish, migrantlarning huquq va moliyaviy himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi[2].

Pul o‘tkazmalari nafaqat uy xo‘jaliklarining daromadlarini oshiradi va balki ichki talabni kengaytirish hamda iste’mol darajasini ko‘tarish orqali qisqa muddatli YaIM o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[3]. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘tkazmalar iqtisodiyotdagi valyuta barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi, chunki u valyuta bozorida qo‘shimcha likvidlik manbai sifatida ishlaydi[4].

Shu nuqtai nazardan, o‘tkazmalar oqimining O‘zbekiston makroiqtisodiyotiga ta’sirini tahlil qilish hozirgi iqtisodiy sharoitda dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, raqamlashtirilgan pul o‘tkazma xizmatlarining rivojlanishi va “teskari pul o‘tkazmalari” fenomenining paydo bo‘lishi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi va yangi ilmiy yondashuvlarni talab qiladi[5]. Shu bois, ushbu

[1] Global Knowledge Report On Remittances, 2024. Washington, DC: World Bank.
[2] O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari: Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida (2022), Valyuta tartibi to‘g‘risida (2021, 2023-yilda o‘zgartirilgan).
[3] Remittances and Macroeconomic Stability: Implications for Emerging Economies. Washington, DC: International Monetary Fund, 2023.
[4] Migration and Development: Uzbekistan Report. Geneva: International Organization for Migration, 2023.
[5] Ayni joyda

tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston mehnat migrantlari pul o‘tkazmalarining makroiqtisodiyotga ta’sirini XVJ va Jahon banki hisobotlari asosida kompleks tahlil qilishdan iborat.

Ushbu ish quyidagi ilmiy yangiliklarni o‘z ichiga oladi: birinchidan, pul o‘tkazmalari oqimining valyuta barqarorligiga ta’sirini ilmiy asosda baholash; ikkinchidan, “teskari pul o‘tkazmalari” va raqamli (digital) kanallarning iqtisodiy samaradorlikka qo‘shgan hissasini aniqlash; uchinchidan, mehnat migranti mablag‘larining tadbirkorlik va investitsiya faoliyatiga ko‘rsatgan ko‘paytiruvchi ta’sirini tahlil qilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon bankining 2024-yilgi pul o‘tkazmalari bo‘yicha hisobotida (Global Knowledge Report on Remittances 2024) global va mintaqaviy o‘tkazmalar tendensiyalari tahlil qilinadi. O‘zbekiston kontekstida, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, pul o‘tkazmalarining mamlakat YaIMiga ulushi sezilarli bo‘lib, 2023–2024- yillarda taxminan 25–30 foizni tashkil etadi. Hisobot pul o‘tkazmalari oqimining uy xo‘jaliklari iste’moliga, ichki talabga va qisqa muddatli iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi. Shuningdek, rasmiy kanallar orqali yuborilgan o‘tkazmalar valyuta barqarorligini mustahkamlashda ham rol o‘ynashi aytilgan[6]. Bu manba tadqiqotimiz uchun asosiy empirik ma’lumotlar manbai sifatida ishlatiladi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasining 2023-yilgi hisobotida esa (Remittances and Macro Stability in Emerging Economies) mehnat migrantlari pul o‘tkazmalarining makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri tahlil qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, pul o‘tkazmalari nafaqat iste’mol va investitsiyani rag‘batlantiradi, balki valyuta bozorida qo‘shimcha likvidlik manbai sifatida ham ishlaydi. Shuningdek, “teskari pul o‘tkazmalari” va raqamlashtirilgan transfer kanallari orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha samaradorlik kiritilishi mumkinligi qayd etilgan[7]. Ushbu ish O‘zbekiston misolida pul o‘tkazmalari va moliya barqarorligi munosabatini o‘rganishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro migratsiya tashkilotining 2023-yilgi (Migration and Development: Uzbekistan Report (2023) O‘zbekiston bo‘yicha hisobotida mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri tahlil qilingan. Hisobot shuni ko‘rsatadiki, pul o‘tkazmalari qishloq joylardagi kambag‘allikni kamaytirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va ichki bozor talabini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, pul o‘tkazmalari oqimining raqamli kanallarga integratsiyasi migratsiya iqtisodiyotining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[8]. Bu manba O‘zbekiston kontekstida migrant mablag‘larining iqtisodiy ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston migrantlarining pul o‘tkazmalari nafaqat uy xo‘jaliklarining daromadini oshiradi, balki valyuta barqarorligini ta’minlash, ichki investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish orqali mamlakat makroiqtisodiyotining barqaror o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamlashtirilgan pul o‘tkazmalari va “teskari pul o‘tkazmalari” fenomeni iqtisodiyot samaradorligini oshirish va rasmiy moliya tizimiga mablag‘larni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu farazga ko‘ra, agar mehnat migrantlarining o‘z pul o‘tkazmalarini rasmiy kanal va raqamlashtirilgan tizimlar orqali yuborishi rag‘batlantirilsa, mazkur mablag‘lar nafaqat iste’mol va YaIM o‘sishiga, balki iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik va investitsiyalarni rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Farazga asoslangan tahliliy izohlar quyidagicha:

- Uy xo‘jaliklari daromadiga ta’sir. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, pul o‘tkazmalarini oluvchi oilalarda yil yakunida o‘rtacha daromad 20–25%ga oshadi[9]. Bu uy xo‘jaliklari iste’molini kengaytiradi, ichki talabni kuchaytiradi va qisqa muddatli YaIM o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi[10].

- Valyuta barqarorligi. Rasmiy kanallar orqali yuborilgan pul o‘tkazmalari valyuta bozorida qo‘shimcha likvidlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, dollar kursi barqarorlashadi, inflyatsiya bosimi kamayadi va iqtisodiy xavflar yumshaydi[11].

Tadbirkorlik va investitsiyalar. Pul o‘tkazmalarining bir qismi kichik biznes va tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltiriladi. Natijada, kichik biznesning rivojlanishiga 15–20% hissa qo‘shiladi[12]. Shu bilan birga, bu mablag‘lar iqtisodiy diversifikatsiyaga ham yordam beradi.

Raqamlashtirilgan (digital) transferlar va “teskari pul o‘tkazmalari”:

Raqamli o‘tkazmalar va teskari pul oqimlari iqtisodiyotga qo‘shimcha samaradorlik kiritadi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va rasmiy

[6] Global Knowledge Report on Remittances 2024. Washington, DC: World Bank.
[7] Ayni joyda
[8] World Bank. (2024). Global Knowledge Report on Remittances 2024. Washington, DC: World Bank.
[9] Ayni joyda
[10] Remittances and Macro Stability in Emerging Economies. Washington, DC: IMF, 2023.
[11] Migration and Development: Uzbekistan Report. Geneva: IOM, 2023.
[12] Digital Remittances in Central Asia: Opportunities and Trends. Washington, DC: World Bank, 2023.

moliya tizimiga mablag‘larni jalb qiladi[13]. Bu mexanizm gipotezani yanada mustahkamlaydi.

Gipotezani tasdiqlash va pul o‘tkazmalari ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinadi:

- Rasmiy kanallar orqali pul o‘tkazmalari oqimini oshirish: hukumat va moliya institutlari tomonidan qo‘shimcha rag‘batlar va qulay shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish.
- Raqamlashtirilgan pul o‘tkazma xizmatlarini rivojlantirish: mobil-banking va raqamli moliya platformalari orqali mablag‘larni tez, xavfsiz va qulay tarzda yuborish mexanizmini kuchaytirish.
- Migrant mablag‘larini investitsiyaga yo‘naltirish: kichik biznes, tadbirkorlik loyihalari va startaplarni moliyalashtirishni rag‘batlantiruvchi siyosat va kredit mexanizmlarini yaratish.
- Valyuta barqarorligini mustahkamlash: pul o‘tkazmalari oqimini valyuta bozoriga integratsiya qilish, shu orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyatsiyani kamaytirish.
- Teskari pul o‘tkazmalarni rasmiy tizimga jalb qilish: mahalliy ish beruvchilar va tadbirkorlar bilan integratsiyani rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yechimlar amalga oshirilsa, gipoteza to‘liq tasdiqlanadi va O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishining barqaror mexanizmi shakllanadi, uy xo‘jaliklari daromadi oshadi, ichki talab va YaIM o‘sadi, valyuta barqarorligi mustahkamlanadi, tadbirkorlik va investitsiyalar rivojlanadi.

Ushbu dolzarblikka oid yana boshqa faraz ham mavjud bo‘lib, u quyidagicha tavsiflanadi:

O‘zbekiston migrantlarining pul o‘tkazmalari nafaqat rasmiy iqtisodiyotga, balki qishloq hududlari va kam ta’minlangan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, agar hukumat va moliya institutlari pul o‘tkazmalari oqimini maqsadli investitsiya va tadbirkorlik loyihalariga yo‘naltirish mexanizmini yaratmasa, mablag‘larning iqtisodiy o‘sishga ta’siri cheklangan bo‘lishi mumkin.

Bu farazni tahliliy asoslashga yondashadigan bo‘lsak, ular quyidagicha:

Qishloq hududlari va kam ta’minlangan oilalar.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, rasmiy kanallar orqali yuborilgan pul o‘tkazmalari qishloq joylaridagi kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi[14]. Uy xo‘jaliklarining asosiy xarajatlari oziq-ovqat va sog‘liqni saqlashga yo‘naltiriladi, bu ijtimoiy barqarorlikni oshiradi.

Iqtisodiy diversifikatsiya

Agar pul o‘tkazmalari mablag‘lari faqat iste’molga sarflansa, ularning iqtisodiyotga uzoq muddatli ta’siri cheklangan bo‘ladi. Shu sababli, mablag‘larni kichik biznes va tadbirkorlik loyihalariga jalb qilish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshiradi va mahalliy ish o‘rinlari yaratadi[15].

Raqamli kanallar va maqsadli investitsiya.

Raqamli pul o‘tkazmalari va maqsadli investitsiya mexanizmlari orqali mablag‘lar samarali ishlatilsa, qishloq hududlarida infratuzilma rivojlanadi va kambag‘allik darajasi kamayadi[16].

Bu boradagi yechim va tavsiyalar ham quyidagicha:

Mablag‘larni qishloq hududlariga yo‘naltirish: Hukumat va banklar tomonidan grantlar, kreditlar va mikrokreditlar orqali pul o‘tkazmalarini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshiruvchi loyihalarga yo‘naltirish.

Raqamli moliya xizmatlarini rivojlantirish: mobil-banking va raqamlashtirilgan transferlar yordamida mablag‘larni tez, xavfsiz va nazorat qilinadigan shaklda yuborish.

Monitoring va hisobot tizimini yaratish: pul o‘tkazmalari oqimining iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini kuzatish va tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish. Natijada, ushbu gipoteza tasdiqlansa, O‘zbekiston migrantlarining pul o‘tkazmalari nafaqat makroiqtisodiyot, balki qishloq hududlari va kam ta’minlangan oilalarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini oshirishda ham muhim rol o‘ynashi aniq bo‘ladi.

[13] The Role of Digital Transfers in Migration Economies. Washington, DC: IMF, 2023.

[14] Migration and Development: Uzbekistan Report. Geneva: IOM, 2023.

[15] Digital Remittances in Central Asia: Opportunities and Trends. Washington, DC: World Bank, 2023.

[16] The Role of Digital Transfers in Migration Economies. Washington, DC: IMF, 2023.

Yil / Davr	Pul o‘tkazmalari kirimi (mlrd AQSh dollari)
2024	14.8
2025 (yanvar-iyun)	8.2
2025 (1-chorak: yanvar–mart)	3.3
2025 (yanvar–oktabr)	15.8
2027	20.0

1-rasm: O‘zbekistonga pul o‘tkazmalarining kutilmasi[17]

2024-yilda O‘zbekiston migrantlarining pul o‘tkazmalari hajmi 14,8 milliard dollarni tashkil etib, iqtisodiyotga sezilarli valyuta oqimi ta’minlanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2025-yilning birinchi yarim yilligi bo‘yicha 8,2 milliard dollar hajmi, oldingi yilga nisbatan 27% o‘sishni aks ettiradi va bu mablag‘larning iqtisodiy ta’siri oshganini bildiradi. 2025-yil 1-chorakdagi 3,3 milliard dollar pul o‘tkazmalari esa yil davomidagi oqimlarni qisman ko‘rsatib, o‘sish sur’atini kuzatish imkonini beradi. Yanvar-oktabr davrida esa pul o‘tkazmalari hajmi taxminan 15,8 milliard dollarni tashkil qilib, yil yakunidagi prognoz va real qiymatlarni taqqoslash imkonini beradi. Kelgusida 2027-yilga mo‘ljallangan 20 milliard dollar hajmi, Markaziy bankning prognoziga asoslanib, pul o‘tkazmalari o‘sishining potensialini va ularning makroiqtisodiyotga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Jadvaldan shuningdek, pul o‘tkazmalari hajmining o‘sib boruvchi trendini kuzatish mumkin bo‘lib, bu uy xo‘jaliklari daromadi, ichki talab va investitsiyalar rivojlanishi bo‘yicha kelajak ssenariylarini ishlab chiqishda asos bo‘ladi. Shu tarzda, real ma’lumotlar va prognozlar O‘zbekiston mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari makroiqtisodiyotga ta’sirini ilmiy tahlil qilish uchun muhim baza yaratadi.

Xulosa. Ushbu maqolada O‘zbekiston mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari va ularning makroiqtisodiyotga ta’siri keng tahlil qilinib, unga ko‘ra, pul o‘tkazmalari uy xo‘jaliklari daromadini oshiribgina qolmay, valyuta barqarorligi, ichki talab va investitsiyalar rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. 2024–2025-yillardagi real ma’lumotlar va 2027-yilga mo‘ljallangan prognozlar asosida kelajakdagi pul o‘tkazmalari oqimining iqtisodiyotga ijobiy ta’siri kuzatiladi. Shuningdek, raqamli transferlar va rasmiy kanallar orqali yuborilgan mablag‘larning samaradorligi oshirilsa, iqtisodiy barqarorlik va qishloq hududlarining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mablag‘larni tadbirkorlik va investitsiya loyihalariga yo‘naltirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Natijada, O‘zbekiston migrantlarining pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiy siyosatini shakllantirish va kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.

[17] Markaziy bank rasmiy vebsaytidan (https://cbu.uz)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida” Qonuni, “Valyuta tartibi to‘g‘risida” Qonuni va tegishli farmonlar
2. “Uzbekistan receives $14.8 billion in remittances in 2024” //The Times of Central Asia: https://timesca.com/uzbekistan-receives-14-8-billion-in-remittances-in-2024/
3. “Migrant workers boost Uzbekistan’s economy with $12.6 billion in transfers”// Kun.uz: https://kun.uz/en/news/2024/11/30/migrant-workers-boost-uzbekistans-economy-with-126-billion-in-transfers
4. “Cross-border remittances to Uzbekistan surge by 35%” // Kun.uz: https://kun.uz/en/news/2024/10/31/cross-border-remittances-to-uzbekistan-surge-by-35
5. “Remittances to Uzbekistan grow 21% in April–June, reaching $4.8 billion” // Kun.uz, 27-avgust, 2025
6. “Volume of Remittances to Uzbekistan grows by 27% in first half of 2025”// UzDaily.uz, 17-iyul, 2025
7. “Remittances to Uzbekistan up 24% year-on-year” //Kun.uz / Central Bank market report, 23-oktabr, 2025
8. “Uzbek migrants contributing more to economy than gold exports” //Kun.uz: https://kun.uz/en/news/2024/12/19/uzbek-migrants-contributing-more-to-economy-than-gold-exports
9. “Growth in household income accelerates in Uzbekistan as remittances surge”// Kun.uz, 29-oktabr, 2025
10. O'zbekiston Respublikasi Markazi bank rasmiy sayti: https://cbu.uz
11. Jahon banki rasmiy sayti: https://www.worldbank.org
12. Xalqaro valyuta jamg’armasi rasmiy sayti: https://www.imf.org
13. Shah Naoaj. The Globalization-Inequality Nexus: A Comparative Study of Developed and Developing Countries//Journal of Economics and Finance, Vol.14, 2023: “The Globalization-Inequality Nexus: A Comparative Study of Developed and Developing Countries”.

SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY